TOSHKENT VILOYATI OQQO'RG'ON TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 12 - fevral 36-10-133-Q/22 Oqqo‘rg‘on tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-anvardagi 39-son qarori ijrosini tashkil etish to‘g‘risida

Davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlarini samarali tashkil etish, hududda nosohaviy, bo‘sh turgan va samarasiz foydalanilayotgan obyektlarni aniqlash hamda ularni xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan hamda Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 31-yanvardagi 33-10-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta`minlash maqsadida, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-yanvardagi “Xususiylashtirish sohasida mutasaddi rahbarlarning shaxsiy mas’uliyatini ko‘rib chiqish to‘g‘risida”gi 39-son, Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 31-yanvardagi 33-10-0-Q/22-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat davlat aktivlarini boshqarish boshqarmasi (I.Nusurov), shahar va tuman hokimlari:

davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlarini samarali tashkil etish, hududda nosohaviy, bo‘sh turgan va foydalanilmayotgan obyektlarni aniqlash hamda ularni xususiylashtirish jarayonlarini samarali tashkil etish va shu orqali ishlab chiqarishni va sanoatni jadal rivojlantirish, tumanning eksport salohiyatini oshirish hamda aholi bandligi va daromadlarini o‘sishini ta’minlash uchun shaxsan mas’ul ekanliklari;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish, jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish va ular negizida yangi ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbirlarni amalga oshiri belgilangan.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (S.Xakimjonov):

davlat mulkini xususiylashtirish holatini tanqidiy tahlil qilgan holda tarmoq va hududlarda samarasiz ishlatilayotgan obyektlarni realizatsiya qilish bo‘yicha ishlarni

faollashtirish va natijadorligini keskin oshirish yuzasidan ta’sirchan choralarni belgilasin;

xususiylashtirish jarayonlarini samarali tashkil etish, hududda nosohaviy, bo‘sh turgan va foydalanilmayotgan obyektlarni aniqlash hamda ularni xususiylashtirish bo‘yicha tashkilotlar rahbarlari faoliyati ustidan talabchanlikni kuchaytirsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Xakimjonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A.Karimdjanov**